

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLIGINI BOSHQARISH AMALIYOTI

Pochayev Sanjar Salixudjayevich

Jizzax SAMBHRAM Unversiteti

MBA 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Tijorat banklarining mijozlar va kreditorlar oldida o'z imidjini saqlab qolishi uchun eng avvalo ularning likvidligi va to'lov qobiliyati mustahkam bo'lishi lozim.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹³gi PQ-3270-sonli qaroriga muvofiq, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi, barqarorligi va likvidligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berildi. So'nggi yillarda respublikamiz tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, aholining banklarga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, tijorat banklari likvidligi, to'lovga qobiliyatligi va barqarorligini ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *Tijorat banki, likvidlik, mijoz, kreditorlar, bank tizimi, kapitallashuv, moliya bozori, raqobat, bank aktivlari, deposit.*

KIRISH

Likvidlik, deganda avvalo moddiy boyliklarning qisqa muddat ichida va hech bir qiymat yo'qotishlarsiz naqd pulga aylanish qobiliyati tushuniladi. Biron bir moddiy boylik likvid hisoblanishi uchun:

- doimiy ravishda o'zining ikkilamchi bozoriga;
- muvozanatli bahoga;

- yuqori aylanish tezligiga ega bo'lishi lozim. Tijorat banklari likvidligini boshqarishdan avval likvid mablag'larga ehtiyojni hisoblash zarur. Likvid mablag'larga bo'lgan talab va taklif doimo o'zgaruvchan bo'ladi, masalan, bankning mijozlari bo'lgan aholi asosan oy boshi yoki oxirida oylik 6 <http://www.business-daily.uz/uz/birjaexpert/16170> 23 maoshlarini oladilar va shu paytda depozit mablag'lari hajmining o'sishi kuzatiladi. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga ko'ra, banklar mablag'larning saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun o'z mijozlari va omonatchilari oldida javobgardirlar. O'zbekiston Respublikasida bank likvidligini samarali boshqarish quyidagi omillar bilan ta'minlanadi:

- bank va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan likvidlikni boshqarish siyosatining mavjudligi;

¹³ <https://lex.uz/docs/-3342348>

-bankning turli bo'linmalarining muvofiqlashtirilganligi;

-bank likvidlik holatining monitoringi vazifalari yuklangan bo'linmaning mavjudligi;

-ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bankning aktiv va passiv holatlarini tahlil qilish uchun axborot tizimining mavjudligi.

Bank likvid mablag'lariga bo'lgan talab va taklifining vujudga kelish manbasi. 7 Likvid mablag'lar taklifining manbalari Likvid mablag'larga talabning manbalari

- Mijozlar tomonidan depozit hisobraqamlariga kirim;

- Nodepozit bank xizmatlarini sotishdan daromad;

- Ilgari berilgan ssudalarning qaytarilishi;

- Bank aktivlarining sotilishi;

- Pul bozorida mablag'larni jalb qilish.

- Mijozlar tomonidan depozit hisobraqamlaridan pul echilishi;

- To'lovga qobiliyatli mijozlar tomonidan kredit olish bo'yicha arizalar kelib tushganda;

- Nodepozit mablag'larni jalb etishda to'lanadigan harajatlar;

- Bank xizmatlarini sotilishi jarayonida operatsion harajatlar va soliqlar to'lovi;

- Aktsionerlarga dividend to'lovlari.

- Likvid mablag'lar taklifining manbalari Likvid mablag'larga talabning manbalari

- Bank likvid mablag'lariga bo'lgan talab va taklifining vujudga kelish manbasi.

Mijozlar tomonidan depozit hisobraqamlariga kirim;

- Nodepozit bank xizmatlarini sotishdan daromad;

- Ilgari berilgan ssudalarning qaytarilishi; -

Bank aktivlarining sotilishi;

- Pul bozorida mablag'larni jalb qilish.

- Mijozlar tomonidan depozit hisobraqamlaridan pul echilishi;

- To'lovga qobiliyatli mijozlar tomonidan kredit olish bo'yicha arizalar kelib tushganda;


- Nodepozit mablag'larni jalb etishda to'lanadigan harajatlar;

- Bank xizmatlarini sotilishi jarayonida operatsion harajatlar va soliqlar to'lovi;

- Aktsionerlarga dividend to'lovlari.

Likvid mablag'lar darajasini baholashda avvalo bank aktivlarining moliyaviy bozordagi holati o'rganilishi lozim bo'ladi. Hech qaysi bank resurslar bozorida raqobat tekshiruvlaridan o'tmasdan turib, yuqori likvid mablag'larga ega bo'lavermaydi. Shuning uchun bank rahbariyati likvidlik strategiyasini belgilab olishi va uni doimiy ravishda nazoart qilib borishi lozim.

Tijorat banklarining likvidlilik darajasini baholash uchun uning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil amalga oshiriladi. Tijorat banklari likvidlilik tahlilining asosiy bosqichlari navbatdagi rasmda aks etgan.



Tijorat banklari likvidlikni oshirishda avvalo balansining aktiv qismida bank likvidligini boshqarish uchun sotilishi oson bo'lgan yuqori likvidli aktivlarni, masalan DQMO ni harid qilish yoki ularga egalik qilish yoxud zaxiralarni ko'proq tashkil qilish va sotilishi qiyinchilik tug'dirmaydigan pul mablag'lariga aylantirish ko'p vaqtni olmaydigan qisqa muddatli qo'yimalarni amalga oshirish yo'li bilan erishishlari mumkin.

Banklarning likvidligini oshirishda avvalo joriy likvidlik holati baholanadi, so'ngra resurslarga bo'lgan talabning davriy o'zgarib turishi, resurslarga bo'lgan talablarning mo'ljallanayotgan o'zgarishlari, zarur resurslar manbalari o'rganib chiqiladi. Bundan tashqari, rahbariyat banklararo bozorda aktivlarni sotish va harid qilishni yoki boshqa manbalarni tanlashi lozim, bunda albatta jalb etilayotgan resurslar tannarxi va sifatiga ahamiyat berish o'rinni. Chunki, bank aktivlarining sifati ham bank likvidligiga ta'sir ko'rsatadi. Bankda muammoli kreditlar, muddati o'tgan, foyda keltirmaydigan kreditlar salmog'ining yuqoriligi, pul mablag'lari harakatining kamligi bank likvidligining tushib ketishiga olib kelishi mumkin, shu tufayli bank faoliyatining barqaror va likvid bo'lishi uning resurslarining manbalari va hajmiga, resurslarni tashkil qilishda diversifikatsiya usulidan foydalanganligiga ham bog'liq. Agar, tijorat banki mablag'larining asosiy qismini sanoqli ixtisoslashgan yoki yirik ob'ektlar mablag'lari yoki davlatning mablag'lari hisobidan tashkil qiladigan bo'lsa, bankning shu sub'ektlar depozitlariga qaramligini ko'rsatadi va sub'ektlar tomonidan turli xil byudjet to'lovlarini amalga oshirish, ish haqi to'lash bo'yicha depozitdan mablag'lar olishi bankning likvidlilik riski shuncha yuqori bo'lishiga olib keladi.

Undan tashqari, bank likvidligi bankning kapitali va daromadligini hisobga olgan holda bankning umumiy moliyaviy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bankning moliyaviy holati yomon bo'lsa, talab qilinayotgan resurslarni yuqori narxda olishi yoki banklararo

kredit resurslari bozoriga kira olmasligi mumkin. Bu esa o'z navbatida bank resurslarining etishmasligiga olib keladi va bank balansi nolikvid holatga kelib qolishi mumkin.

Maqoladan ko'zlangan maqsad shuki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligini boshqarish amaliyotiga tahliliy yondashib bankning moliyaviy holatini yaxshilash va bank balansini yuqori darajaga chiqarish masalalarini ko'rib chiqish nazarda tutilgan.

Maqola mazmuni va maqsadi yechimini topish uchun, bir qancha vazifalarni amalga oshirish lozim va ular quydagicha:

- tijorat banklari likvidligini boshqarish siyosatini nazariy asoslari va amaliy jihatlarini o'rganish;
- bankning oltin qoidasidan kelib chiqib, tijorat banklari aktivlarining likvidlikka ta'sirini o'rganish;
- bank likvidliklarini takomillashtirish borasida ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- tijorat banklarining likvidlik me'yorini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi bank tizimining aktiv va passivlari tarkibi, dinamikasi va strukturasi tahlil qilish;
- Tijorat banklari likvidligini boshqarishda Xalqaro Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari va rivojlangan mamlakatlar bank tizimi tajribasidan kelib chiqib, respublikamiz bank tizimida qo'llaniladigan iqtisodiy me'yorlarni takomillashtirish hamda xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- tijorat banklari likvidligini boshqarishning nazariy-huquqiy asoslari o'rganildi mualliflik tarifi berildi;
- O'zbekiston Respublikasi bank tizimining aktiv va passivlari tarkibi, dinamikasi va strukturasi tahlil qilindi;
- Agrabank misolida tijorat banklarining likvidlik me'yorlari tahlil qilindi;
- tijorat banklari likvidligini boshqarishda Xalqaro Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari va rivojlangan mamlakatlar bank tizimi tajribasidan kelib chiqib, respublikamiz bank tizimida qo'llaniladigan iqtisodiy me'yorlarni takomillashtirish hamda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi qonuni 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Bank tizimini yanada erkinlashtirish

va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2000-yil 21-aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006 yil 19 dekabrda PF-3831 son farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrda "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3270 sonli qarori.

5. O'zbekiston Prezidenti 7-fevral kuni farmoni 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.

6. Е.Ф.Жуков. "Деньги, банки и кредит". -М. Финансы 2010. 205 стр.

7. М.Ильясов. "Вопросы устойчивости коммерческих банков". -С.Питер, 2010. 110 стр.